

TALABALIK DAVRIDA SHAXSIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLAR RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Kenjayeva Dilnozaxon Sadirdinovna

Qo'qon davlat universiteti

Psixologiya kafedrası o'qituvchisi

kenzaevadilnozaxon@gmail.com

Komiljonova Dinorabonu

Qo'qon davlat universiteti

Psixologiya yo'nalishi 202- guruh talabasi

Annotatsiya: Bugungi rivojlanib borayotgan mamlakatimizda talaba yoshlarning shaxsiy hayot haqidagi tasavvurlari, ijtimoiy moslashuvi, texnologik taraqqiyot va axborot oqimiga qarashlari, oila, sevgi, nikoh munosabatlari haqida tasavvurlarini individual, ijtimoiy va madaniy omillar ta'sirida yuzaga chiqishi kabi masalalarni ilmiy va amaliy ma'lumotlar asosida yozilgan.

Kalit so'zlar: shaxsiy hayot, tasavvur, ijtimoiy moslashuv, oila, sevgi, nikoh.

Abstract: In our developing country today, the article is written on the basis of scientific and practical data on the issues of students' perceptions of their personal lives, social adaptation, views on technological progress and information flow, and the emergence of their perceptions of family, love, and marital relationships under the influence of individual, social, and cultural factors.

Keywords: personal life, imagination, social adaptation, family, love, marriage.

Inson hayotida shaxsiy hayotning tutgan o'rni beqiyos bo'lib, bu soha nafaqat individual baxt va ruhiy barqarorlikni, balki jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning ham barqarorligini ta'minlaydi. Talabalik davri esa shaxsiyat rivojida muhim bosqich hisoblanib, bu davrda o'zini anglash, hayotiy qadriyatlar va maqsadlar aniqlashtiriladi, shuningdek, shaxsiy hayotga nisbatan tasavvurlar shakllana boshlaydi. Bugungi globallashuv, texnologik taraqqiyot va axborot oqimining kengayishi natijasida yoshlarning shaxsiy hayot haqidagi qarashlari o'zgarib bormoqda. Ayni paytda, oila, sevgi, nikoh, munosabatlar haqida shakllanayotgan tasavvurlar individual, ijtimoiy va madaniy omillarning ta'sirida yuzaga chiqadi. Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, shaxsiy hayotga oid noto'g'ri yoki yetarlicha shakllanmagan tasavvurlar talabalarning psixologik barqarorligiga, ijtimoiy moslashuviga va kelajakdagi hayot sifati hamda qarorlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, talabalik davrida shaxsiy hayotga oid tasavvurlar qanday shakllanayotgani, bu jarayonga ta'sir qiluvchi psixologik omillarni aniqlash bugungi psixologik tadqiqotlar uchun dolzarb hisoblanadi. Shaxsiy hayotga oid tasavvurlar: Insonning ijtimoiy tajribasi, madaniy qadriyatlari va individual psixologik xususiyatlari asosida shakllanadi. Bu borada turli psixologik nazariyalar

muhim asos bolib xizmat qiladi. E.Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasida talabalik yoshdagi shaxslar "yaqinlikka erishish yoki yakkalanish" bosqichida bo'ladi. Bu davrda yoshlar shaxsiy hayot, do'stlik va sevgi munosabatlarni shakllantirishga intiladilar.

Shuningdek, A. Maslowning ehtiyojlar ierarxiyasida ham shaxsiy yaqinlik, muhabbat va o'zini anglash ehtiyojlari yuqori pog'onalarda turadi. Bu ehtiyojlar talabalik davrida faol ko'rinish oladi.

D. Elkonin yosh davrlari haqidagi nazariyasiga ko'ra, bu bosqichda inson o'zining kasbiy, shaxsiy va ijtimoiy hayoti haqida qarorlar qabul qiladi. Shuning uchun bu davrdagi tasavvurlar kelajak hayotga katta ta'sir ko'rsatadi. Ko'plab zamonaviy tadqiqotlar (O'zbekistonlik psixologlar: Sh. Bo'taqoziev, N. To'raqulov va b.) yoshlarning shaxsiy hayot haqidagi qarashlari jamiyatdagi stereotiplar, oila muhitidan olgan tajriba va shaxsiy identitet bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydilar. O'tkazilgan psixologik tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalar orasida shaxsiy hayotga oid tasavvurlar turlicha shakllangan bo'lib, bu ularning jinsiga, yoshiga va psixologik tayyorgarlik darajasiga bog'liq holda farqlanadi. Bu natijalar shuni anglatadiki, talabalar shaxsiy hayotga oid umumiy tasavvurlarga ega bo'lsalar-da, ularning chuqurligi va aniqligi individual omillarga bog'liq.

Xulosa qilib aytganda tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talabalik davrida shaxsiy hayotga oid tasavvurlar hali to'liq shakllanmagan, ularning chuqurligi va aniqligi individual omillar, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy tajribalarga bog'liq xolda o'zgaradi. Quyida shaxsiy hayotni yanada yaxshilash, hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish, munosabatlarda ijobiy natijalarga erishish, qo'llab quvvatlanish uchun takliflar ilgari suriladi:

1. Shaxsiy hayot, oila, sevgi va mas'uliyat mavzularida psixologik trening va davra suhbatlari, ijodiy uchrashuvlar, psixologik xizmatlar yo'lga qo'yish;
2. "Hayotiy ko'nikmalar" fan doirasida amaliy mashg'ulotlar tashkil etish;
3. Psixologik maslahat markazlarining faoliyatini kuchaytirish;
4. Ijtimoiy tarmoqlarda ijobiy, ilmiy asoslarga ega namunalarni ko'paytirish;
5. Stereotiplarni ilmiy asosda yoritish orqali ongli munosabatni shakllantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Bo'taqoziev Sh. Shaxs taraqqiyoti muammolari. – T.: 2010.
2. To'raqulov N. Talabalik davrida psixologik rivojlanish. – T.: 2015.
3. Internet manbalari va sotsiologik tadqiqotlar (2024–2025 yillar).